

13.00.00 Pedagogika fanlari
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№1/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 154 sahifa,
9-yanvar, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari bo'yicha doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Ochilov S.R. – Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi metodisti***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
Qirg‘izboyev Abdug‘affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O‘. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Ochilov S.R. – Methodologist at the Department of Preschool and School Education of Kashkadarya Region***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko‘ra, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo‘yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Yangi taraqqiyot davrida oliy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari ........ 8
Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Tebranma kimyoviy reaksiyalar mavzusini o'qitishning ahamiyati
(Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari misolida)........ 12
Artiqov Maqsud Bahodirovich, Sultanov Miribek Jabbarbergenovich, Bazarbayeva Laylo Gulmirza qizi

Biologiya o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va metodlarning takomillashib borishi ........ 15
Azimov Ibragimjon Toshpulatovich, Toshpulatova Nigina Ibrohimjon qizi, Toshpulatova Maftuna Ibrohimjon qizi

Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ........ 20
Doniyorova Gulshan Toshmirzayevna

Tarbiya – insoniyat rivojlanishining ajralmas qismi ........ 25
Nayimova Aziza Dilmurot qizi

Bolalarga xos psixologik o'zgarishlar va ularning yechimlari........ 29
Qodirova Malikaxon Kaxramonovna

Tibbiy ma'lumotlarni avtomatlashtirish: ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash
va tahlil qilish uchun modulli vositalar........ 34
Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich, Rustamova Charosxon Rustamovna

Lexicon Changes in the 21st Century Royal English........ 37
Sapayeva Yakutjan Maxmudovna

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun ritmik gimnastika darslarini tuzilishi ........ 43
Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Xalilova Barnogul Abdulazizovna

Maktabgacha 6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyalarini shakllantirishda multimedianing o'rni ........ 47
Suvanova Nodirabegim Sadir qizi

Физическое воспитание студенческой молодежи в современных условиях ........ 51
Тангриев Абдукарим Товошович

Tibbiyot instituti talabalarida professional tibbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ........ 55
Umarkulov Mukhtorali Islomkulovich

Orqa miya shikastlanishida adaptiv jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish........ 58
Xalilova Barnogul Abdulazizovna, Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi

Творчества скотта туроу в оценке литературной критики ........ 62
Хайдарова Умида Пулатовна

Sport kurashi usullarini tasnifi, tizimi va ularning atamasi ........ 67
A. R. Xodjanov

Роль образования в реабилитации и реинтеграции детей-репатриантов ........ 71
Юлдашев Санжар Рузимуродович

O'quvchilarda liderlik xislatlarini shakllanishining gender jihatlari........ 76
Yuldasheva Sevara Ruzimurodovna

Bo'lajak o'qituvchilarni partisipativ tayyorlashda ijtimoiy-perseptiv ko'nikmalarning ahamiyati ........ 79
Muradova Maftuna Komilovna

Sport kurashi usullarining tasnifi, tizimi va ularning atamasi ........ 82
Faxriddin Karimov

Yuqori sinflarda ingliz tili darslarida grammatik interferensiyani aniqlash va uni bartaraf etish usullari........ 86
Amirqulova Dilnoza Bahriddin qizi

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yondashuvi asosida
bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari........ 89
Baybayeva Muxayyo Xudaybergenovna, Zulxaydarov Javlonbek Abdukaxor o'g'li

The Role of Non-Governmental Higher Education Institutions in
Contemporary Educational Systems and their Economic Impact........ 92
I. Imomov

Ingliz tilini o'rganishda autentik materiallardan foydalanish metodikasini takomillashtirish modeli ............. 98
**Ismatova Madina Inomjon qizi**

Elektron darsliklardan samarali foydalanish uchun qo'yilgan talablarning asosiy mezonlari....................... 101
**Jumanov Xudoyor Shuxrat o'g'li**

Xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari......................................... 104
**Karimova Maxbuba Mukimjonovna**

Oliy ta'lim talabalarida "health care" tafakkurini shakllantirishning pedagogik zaruriyati ............................ 107
**Mattiyev Ilhom Begmatdulobovich**

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvida jamoa motivatsiyasini oshirishdagi rahbarning roli ................. 111
**Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Shukurova Shaxzodaxon Xolbek qizi**

Yangi o'zbekiston taraqqiyot davrida tarbiyaviy texnologiyalar asosida
yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish...................................................................................... 114
**Nigmanova Umidaxon Baxodirxon qizi, Quvondiqova Dildora Komiljonovna**

Oilaviy va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashda oila va maktab hamkorligi – pedagogik muammo ............... 119
**Saidova Barno Narzullayevna**

Talaba-yoshlarda reproduktiv salomatlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlari. 123
**Shodmonova Shoira Saidovna, Shodmonova Dilsora Shokirovna**

Futbol ko'nikmalarini etnosport elementlari asosida shakllantirish ........................................................... 127
**Toshpo'latov Sirojjon Komiljon o'g'li**

Abdulla Avloniy pedagogik merosida yoshlar ekologik tafakkurini rivojlantirish g'oyalari ........................... 130
**Umarova Malika Xisabidinovna**

Umumta'lim muassasalarida – ta'lim sifatini boshqarish ustuvor yo'nalish sifatida.................................... 135
**Yakubova Muxtaram Abdumavlyanovna**

Использование современных педагогических технологий на занятиях иностранного языка ............. 138
**Виктория Мамаджанова**

Открытое занятие физкултурный досуг "Колобок"........................................................................ 142
**Кинжабаева Дильбар Абдурафиковна**

Толерантность у учителей: значение, роль и пути формирования...................................................... 145
**Уразова М.Б., Бекбосынова З.К.**

Ingliz tilini o'qitishda o'qish ko'nikmasini o'rgatishning an'anaviy va zamonaviy turlari talqini.................... 151
**O'rinova Durdona Farhodovna**

# FUTBOL KO'NIKMALARINI ETNOSPORT ELEMENTLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH



Toshpo'latov Sirojjon Komiljon o'g'li
CHDPU "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada etnosportning tavsifi, afzalliklari, bugungi kunda berilayotgan e'tibor, futbol o'yini bilan integratsiyasi orqali futbol o'yini ko'nikmalarini shakllantirish usullari va metodikasi hamda pedagogik asoslari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Etnosport, milliy o'yinlar, sport an'analari, milliy bayramlar, futbol ko'nikmalari.

**Abstract:** In this article, the description of ethnosport, its advantages, the attention paid today, the methods of forming football skills through its integration with the game of football, and its pedagogical foundations are presented.

**Key words:** Ethnosport, national games, sports traditions, national holidays, footballkills.

**Аннотация:** В данной статье представлены описание этноспорта, его преимущества, внимание, уделяемое сегодня, методы формирования футбольных навыков через его интеграцию с игрой в футбол, а также педагогические основы.

**Ключевые слова:** Этноспорт, национальные игры, спортивные традиции, ациональные праздники, футбольное мастерство.

## KIRISH

O'zbek xalq milliy o'yinlari o'zining uzoq o'tmishi va boy tarixiga ega bo'lib, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan ma'naviy boyligimiz va qadriyatlarimizdan sanaladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab milliy qadriyatlarimiz, an'ana va udumlarimiz, shu jumladan xalq o'yinlarini qayta tiklashga katta e'tibor qaratildi. Endilikda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini ommalashtirish hamda rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sportning an'anaviy turlari bilan birga milliy sport turlari va xalq o'yinlari ham tobora rivojlanmoqda. Xalqlarning boy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda sportning an'anaviy turlari muhim ahamiyat kasb etadi. 2021-yil 8-oktyabr kuni Toshkent shahrida "O'zbekistonda etnosportning rivojlanish istiqbollari" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

O'zbekistonda milliy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslardan biri bo'lib, nomoddiy madaniy merosni asrash, shuningdek, aholi orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda ommalashtirish sohasidagi asosiy masalalardan biridir. Shu maqsadda tashkil etilgan xalqaro konferensiya "O'zbekistonni etnosport va milliy qadriyatlar orqali kashf eting!" shiori ostida o'tkazildi. Mazkur xalqaro konferensiyada O'zbekiston Etnosport assotsiatsiyasi tashkil etilganligi barchaga ma'lum qilindi [5].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–201-son[1] qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-martdan boshlab milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etildi [1]. Shuningdek, 2022-yil 25-mayda "Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Mazkur qaror asosida etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi hamda uni 2022–2023-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. "Futbol ko'nikmalarini etnosport elementlari asosida shakllantirish" mavzusi jismoniy madaniyat yo'nalishidagi talabalar uchun muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu metodika yosh sportchilarda zamonaviy futbol texnikasini

1 https://www.lex.uz/uz/docs/-5950242

milliy sport an'analari elementlari bilan uyg'unlashtirish orqali jismoniy tayyorgarlik va taktik bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Xalqaro darajada olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, YUNESKO milliy sport turlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, etnosportni madaniy meros sifatida saqlash va uni zamonaviy sport bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Turkiyalik olim Turabi Alekberli etnosportning jahon miqyosida rivoji va uning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatiga bag'ishlangan keng qamrovli izlanishlar olib borgan. Rossiyalik tadqiqotchilar (A.N. Livov, V.N. Volkov) esa etnosportning inson fiziologiyasi va psixologiyasiga ta'siri, shuningdek, uning jismoniy tarbiya va sportdagi roli haqida tadqiqotlar o'tkazgan.

O'zbekistonda milliy sport turlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda A. Rajabov va Sh. Qodirov milliy sportlarning jismoniy tarbiya va sportga integratsiyasini o'rganishgan. Ular milliy o'yinlarning tezkorlik, chidamlilik, kuch va harakat koordinatsiyasini yaxshilashga xizmat qilishi va zamonaviy futbol texnikasi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini o'rgangan. Psixologik rivojlanish va motivatsiya bo'yicha milliy qadriyatlarni mashg'ulotlarga kiritish orqali yoshlarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirish yo'llari aniqlangan. Milliy o'yinlarni zamonaviy sportga integratsiya qilish orqali madaniy merosni saqlash va yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, shuningdek, jamoaviy harakatlarni futbol taktikasi bilan uyg'unlashtirish orqali yetakchilik qobiliyatlari va mas'uliyatni oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Milliy o'yinlardagi sakrash, yugurish va aylanish harakatlarini futbolning individual texnikasiga tatbiq qilish orqali jismoniy va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish yo'nalishida ijodiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Innovatsion usullar va uslubiy yondashuvlardan foydalanish orqali jismoniy tarbiya yo'nalishidagi mashg'ulotlarni milliy o'yinlar bilan boyitish zamonaviy futbolni o'qitish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Etnosport orqali futbol o'yin ko'nikmalarini shakllantirish milliy an'analarni zamonaviy sportga integratsiya qilishga asoslanadi. Bu jarayon futbol texnikasi, taktikasi va jismoniy tayyorgarlik elementlarini milliy o'yinlar vositasida rivojlantirishni ko'zda tutadi. Quyida buni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari bayon etilgan.

Milliy o'yinlar elementlarini futbol mashg'ulotlariga kiritish orqali sportchilarning tezkorligi va harakat dinamikasini oshirishga e'tibor qaratiladi. Masalan, milliy o'yinlarda tezkor harakatlar ("chavgan" yoki "buxorcha" harakatlari) futboldagi dribling va hujum qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Shunga mos ravishda mashq sifatida to'p bilan tez harakat qilib to'siqlardan o'tish tavsiya etiladi. Kuch va muvozanatni oshirishda esa "ko'pkari" yoki "lashkarboshi" kabi o'yinlar futboldagi himoya va to'p uchun kurashish mahoratini rivojlantiradi. Mashq sifatida juftlikda to'pni saqlash uchun kontaktsiz kurash tashkil etiladi.

Etnosport harakatlarini texnik va taktik mashqlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Hujum qilish strategiyalarida milliy o'yinlardagi jamoaviy ishlashga qaratilgan elementlar futbol taktikasini rivojlantiradi. Ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun jamoada milliy o'yinlar qoidalariga asoslangan to'p uzatish va hujum tashkil qilish mashqlari o'tkaziladi. Himoya harakatlarini takomillashtirishda esa milliy o'yinlardagi himoya harakatlari ("chavgan" yoki "urish qoidalari") futboldagi himoya taktikasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Mashq sifatida to'pni raqibdan himoya qilishda milliy harakatlarni qo'llash o'rgatiladi.

Jismoniy tayyorgarlikni kuchaytirish uchun etnosportdagi sakrash, yugurish va dinamik harakatlar ("qurolboshi" yoki "lashkarboshi") futbolchilarning jarohatga chidamliligini va tezkorligini oshirishga qaratilgan. Bu jarayonni mustahkamlash uchun milliy o'yinlardagi harakatlar bilan bog'liq dinamik treninglar (pliometrik mashqlar) tavsiya etiladi.

Raqib bilan raqobatni kuchaytirish futbolchilar o'rtasida kurash ruhini oshirishga xizmat qiladi. Milliy o'yinlardagi raqobatchilik muhiti bu borada juda muhimdir. Mashq sifatida to'p uchun jamoaviy yoki juftlikda kurash tashkil etiladi.

Milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali milliy sport elementlari futbol o'yiniga shaxsiy va jamoaviy motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Milliy bayramlarda futbolning etnosportga moslashtirilgan versiyalarini, masalan, futbol va ko'pkari kombinatsiyasini o'tkazish, ushbu jarayonga misol bo'la oladi.

Metodikani samaradorligini baholash ham tadqiqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Mashqlarning jismoniy va taktik ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash hamda etnosport elementlari orqali talabalarning jamoaviy harakatlarini tahlil qilish orqali metodikaning samaradorligi aniqlanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Etnosport va zamonaviy futbol o'rtasida integratsiyani takomillashtirish hamda ushbu yo'nalishda ilmiy yangilik yaratish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish mumkin.

Milliy o'yinlar asosida maxsus futbol mashg'ulot metodikasini ishlab chiqish bo'yicha milliy o'yinlardagi harakatlar va qoidalardan kelib chiqqan holda futbol uchun eksklyuziv mashqlar to'plamini yaratish maqsadga

muvofiqdir. Ushbu yangilik zamonaviy futbol texnikasi va taktikasini milliy sport elementlari bilan uyg'unlashtiruvchi mashg'ulotlar tizimini joriy etishni o'z ichiga oladi. Masalan, to'pni nazorat qilish uchun "chavgan" harakatlaridan yoki hujumda "lashkarboshi" usullaridan foydalanish mumkin.

Innovatsion trenajyor yoki simulyatsiya vositasini ishlab chiqish yo'nalishi milliy o'yinlar harakatlarini zamonaviy futbolga tatbiq qilish uchun maxsus trenajyor yoki virtual simulyatsiya vositalarini yaratishni o'z ichiga oladi. Bu yangilik milliy sportning o'ziga xos elementlarini o'yin texnologiyalari orqali rivojlantirish imkonini beradi.

Jismoniy tayyorgarlikni baholashda etnosportga xos mezonlarni joriy qilish orqali futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini baholovchi yangi test tizimini ishlab chiqish mumkin. Bu yangilik milliy o'yinlardan olingan tezkorlik, kuch va chidamlilik mezonlarini zamonaviy futbol baholash tizimiga qo'shishni nazarda tutadi.

Milliy an'analarni aks ettiruvchi taktik sxemalar ishlab chiqish milliy o'yinlardagi jamoaviy harakat va strategiyalarni futbol taktik sxemalariga tatbiq qilish imkonini beradi. Ushbu yangilik etnosport asosida milliylikni aks ettiruvchi futbol taktikasi modelini yaratishni ko'zda tutadi. Masalan, "Ko'pkari" qoidalaridan kelib chiqqan holda hujum va himoya jarayonlarida jamoaviy harakatni rivojlantirish mumkin.

Etnosport elementlari asosida psixologik tayyorgarlik dasturini yaratish milliy o'yinlardagi raqobatchilik, jamoaviylik va motivatsiya jarayonlarini futbolchilardagi psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish uchun qo'llashga qaratilgan. Bu yangilik milliy o'yinlar orqali stressga chidamlilik, strategik fikrlash va jamoaviy yetakchilik qobiliyatini shakllantiruvchi metodikani taklif qiladi.

Etnosportning futbolga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish orqali etnosport elementlari futbolchilarning harakatlari, chidamliligi va jamoaviy uyg'unlikka ta'sirini eksperimental tadqiq qilish imkonini beradi. Bu yangilik etnosport va futbolni integratsiya qilish samaradorligini aniqlovchi ilmiy asoslangan modelni yaratishni ko'zda tutadi.

Etnosport va futbolning integratsiyalangan turini yaratish etnosport va zamonaviy futbol elementlarini birlashtiruvchi yangi sport o'yinini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu yangilik o'ziga xos qoidalar, o'yin tartibi va harakatlarni o'z ichiga olgan gibrid sport turini yaratishni nazarda tutadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Etnosport elementlarini zamonaviy futbolga integratsiya qilish talabalarning sport mahoratini oshirish bilan birga milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va saqlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv zamonaviy ta'lim jarayonida milliy sportning ahamiyatini oshiradi va futbol o'yinlariga yangicha nafas bag'ishlaydi. Etnosport, milliy an'analar va qadriyatlarni saqlab qolgan holda, futbol o'yini uchun zarur bo'lgan jismoniy va taktik ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. Milliy o'yinlarni futbol mashg'ulotlariga moslashtirish orqali yosh futbolchilarda jamoaviylik ruhini shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlikni yaxshilashga erishiladi.

Etnosport – bu xalq an'analaridan kelib chiqqan milliy o'yinlar va jismoniy faoliyat turlari bo'lib, ularni zamonaviy yondashuv bilan uyg'unlashtirish jismoniy madaniyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy futbol esa innovatsion texnologiyalar va taktikalar asosida o'sib borayotgan sport turi sifatida jamoaviylik, harakatlar dinamikasi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Etnosport va futbolning integratsiyasi orqali yosh sportchilarda jismoniy va ma'naviy rivojlanish ta'minlanadi.

Shu bois, milliy o'yinlarni futbol mashg'ulotlariga tatbiq qilish jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish, yangi mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish, etnosport elementlarini ilmiy asoslangan metodikaga aylantirish va innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash muhim taklif sifatida ilgari suriladi. Bundan tashqari, etnosportning futbolga qo'shilishi orqali o'quv jarayonida milliylikni saqlab qolish va yoshlarning jismoniy tarbiyasida milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish imkoniyatlari oshadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–201-son qarori.
2. Turdimuratov Y.A., Berdimurodov Z.I. O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirishga oid davlat siyosati // ERUS. Multidisciplinary Scientific Journal. February, 2023. 144–152.
3. Turdimuratov Y.A. Yangi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportga oid davlat siyosati // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar. Journal of Advanced Research and Stability. 05/2023. 575–581.
4. www.minsport.uz – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi rasmiy veb-sayti.
5. www.olympic.uz – O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi rasmiy veb-sayti.
6. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
7. www.olamsport.com – Internet portali.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2025. №1

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.